

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
"Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi	433
B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati	441
N.A.Akbarova	
Farg'ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari	445
A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev	
Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



УО'К: 37.014.5:364:371

**UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY ISH AMALIYOTINI AMALGA OSHIRISH
(ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA)**

**РЕАЛИЗАЦИЯ ПРАКТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ РФ)**

**IMPLEMENTATION OF SOCIAL WORK PRACTICES IN PUBLIC EDUCATIONAL
INSTITUTIONS (ON THE EXAMPLE OF THE RUSSIAN FEDERATION)**

Abdurahmonova Manzura Manfovna¹ 

¹Farg'onan davlat universiteti Iqtisod fanlari dotsenti

Suyumova Marxabo²

²Farg'onan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarning ta'limg olish jarayonlari, jamiyat bilan aloqaga kirishish hamda ularning oilalari bilan bog'liq bo'lgan holatlar yuzasidan kelib chiqadigan muammolar yoki ummumtalim muassasalarida ijtimoiy ish xodimi faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarda ijtimoiy ish xodimining vazifalari haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarning ta'limg olish huquqlarini ta'minlash, yuksak iqtidorga ega bo'lgan yoshlarning iste'dodini namoyon etishishga ko'maklashish va ularni qo'llab quvvatlash bo'yicha zamonaviy ta'linda ijtimoiy ish amaliyotini olib borish (Rossiya Federatsiyasi misolida) haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье речь пойдет о проблемах, возникающих в связи с процессами образования молодежи, вступлением в контакт с обществом и их семьями сегодня, или об обязанностях работника социальной работы в ситуациях, связанных с деятельностью работника социальной работы в учреждениях общего профиля. Также рассматривается вопрос о проведении практики социальной работы в современном образовании (на примере Российской Федерации) по обеспечению прав граждан, нуждающихся в социальной помощи, на получение образования, содействию в проявлении и поддержке одаренности высокоинтеллектуальной молодежи.

Abstract

This article discusses the tasks of a social worker in situations related to the processes of education of young people today, problems arising from contact with society and situations related to their families, or the activities of a social worker in public institutions. It was also thought about ensuring the educational rights of citizens in need of social assistance, promoting the manifestation of the talent of Highly Gifted Youth and conducting social work practices in modern education for their support (on the example of the Russian Federation).

Kalit so'zlar: ta'limg muassasasi, davlat ta'limg standartlari, ijtimoiy yordam, muhtoj fuqaro, ijtimoiy ish, ta'limg darajasi, mijoz, vaziyatni baholash, psixolog, psixoterapevt, mutaxassis.

Ключевые слова: образовательное учреждение, государственные образовательные стандарты, социальная помощь, нуждающийся гражданин, социальная работа, уровень образования, клиент, оценка ситуации, психолог, психотерапевт, специалист.

Key words: educational institution, state educational standards, social assistance, needy Citizen, social work, educational level, client, situational assessment, psychologist, psychotherapist, specialist.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning ta'limg olishlari va barkamol avlod bo'lib yetishsishlari uchun har qachongidan ham e'tibor katta. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugungi zamon talabb qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz[1,56]. Hozirgi vaqtida yoshlarning tarbiyasi va ta'limg olish jarayonlaridagi muammolar, jamiyat bilan aloqadorligi hamda oilalari bilan

alohida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy ish xodimining o'rni beqiyos.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Ta'lism sohasidagi ijtimoiy ish qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar va eng avvalo RFning "Ta'lism to'g'risidagi" (1992 y.) va "Rossiya Federatsiyasining "Ta'lism to'g'risidagi" Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi (Qonunning 1996y. 13-yanvardagi yangi tahriri) "Ta'lism olish huquqi" nomli 2 bo'limida ("Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining ta'lism sohasidagi huquqlarini kafolatlash" moddasi) Federal qonun tomonidan shunday yozilgan[2]:

"...davlat fuqarolarga boshlang'ich, umumi, asosiy umumi, o'rtal (to'liq) umumi ta'lism va boshlang'ich kasbiy ta'limga hammabop va bepulligini, hamda shuningdek agar fuqaro tanlov asosidagi ta'lismi ilk bor olayotgan bo'lsa, davlat ta'lism standartlari doirasidagi davlat muassasalari va munitsipal ta'lism muassasalaridagi bepul o'rtal kasbiy va oliygojni tugallagandan keyingi kasbiy ta'lismi kafolatlaydi..." (3-b.).

"...ijtimoiy yordamga muxtoj fuqarolarning ta'lism olish huquqini joriy etish maqsadida, ta'lism olish davrida ularni boqish uchun sarflanadigan xarajatlarni davlat to'la yoki qisman o'z zimmasiga oladi. Bu kabi yordam ko'rsatiluvchi fuqarolar toifasi, uning shakllari va manbalari federal qonun tomonidan belgilanadi..." (5-b.).

"...Yuksak iqtidorga ega fuqarolarning ta'lism olishiga, shu jumladan ularga maxsus davlat stipendiyalari berilishiga, shuningdek ularning xorijda tahsil olishiga beriladigan stipendiyalarini olishlariga davlat yordam ko'rsatadi. Bunday stipendiyalarni berish mezoni va tartibi RF hukumati tomonidan belgilanadi..." (6-b.).

Har qanday ta'lism darajasida: shaxs tomonidan asosiy umumi ta'lismi (1-9 sinflar) olishda;

- o'rtal (to'liq) umumi ta'lismi (10-11 sinf) olishda;
- boshlang'ich kasbiy ta'lismi olishda;
- oliy kasbiy ta'lismi olishda;
- oliygojni bitirgandan keyingi kasbiy ta'lismi olishda zaruriy ijtimoiy yordam ko'rsatilishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Oliy ta'lism va oliygojni bitirgandan keyingi ta'lism to'g'risida"gi (1996 y.) Federal qonun ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarga tegishli ta'lism darajasiga ega bo'lgan fuqarolarning huquqlarini himoyalash imkonini beradi.

Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis har qanday darajadagi ta'lism muassasasi sharoitida, har qanday shaklda va bo'ysunganlikda faoliyatini amalga oshirar ekan, aynan kim va aynan qanday sabablarga ko'ra va aynan qanday ijtimoiy ko'makka muxtoj ekanligi;

- aynan qaysi jihatdan inson huquqi cheklab qo'yilgani to'g'risida xabardor bo'lmos'i zarur. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis ta'lism sohasidagi huquqi qonunga muvofiq qo'llanilmay, va bunda fuqarolarning qonuniy talablarini qondirish imkoniyatlari izlanilmay, ularning zarur manfaatlarni qo'liga kiritish layoqati nokonstruktiv va ijtimoiy kuchlarga erishish vositalari cheklab qo'yilgan alohida shaxsga emas, balki shaxslar guruhi yoki hatto butun bir jamoaga yordam ko'rsatishiga va qo'llab-quvvatlashiga to'g'ri keladi.

Ta'lism sohasidagi ijtimoiy ish asosan turli ta'lism xizmatlaridagi aholining ehtiyojlarini birmuncha to'la qondirish vazifasini hal etishga borib taqaladi. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisning faoliyati muhtojlik sezuvchi insonni unga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonining barcha bosqichlari orqali izchillikda o'tkazishdan iborat. Muxtojlikdan o'zini-o'zi ta'minlash kabi hamkorlikda amalga oshirilgan bu ish mijoz uchun hayotiy tajribasining konstruktiv qismiga aylanadi. Bu kabi faoliyat maktabgacha ta'lism muassasasi tarbiyachisining, maktab muallimining, oliygoh o'qituvchisining majburiyatiga kirmaydi, binobarin, garchi hatto ular o'z o'quvchilarining muxtojligi haqida xabardor bo'lsalar-da, ularning tirkchilik muammolarini hal etish bilan shug'ullanishga e'tirof etilgan ta'lism sohasi xodimlari majbur emaslar[3].

Modomiki shunday ekan, ta'limgagi va ijtimoiy ishdagi maqsad va vazifalarni integratsiyalamay turib; hamda har ikki ijtimoiy institutlar mutaxassislarining kuchlarini muvofiqlashtirmay turib, Rossiyada ijtimoiy farovonlikka erishib bo'lmaydi. Boshqachasiga aytganda, ijtimoiy ishdagi va zamonaliviy ta'limgagi maqsad va vazifalarni integratsiyalash Rossiyada ijtimoiy farovonlikka erishishning yo'llaridan biri sanaladi.

ILMIY AXBOROT

Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisning assosiy vazifalari o'qituvchi va ijtimoiy pedagogning vazifasidan farqli o'laroq, quyidagilardan iborat:

- diagnostik (mijozning, oilaning yoki guruhning "dardi" deya ataluvchi ijtimoiy diagnoz qo'yish);
- terapeutik ("davolash"ning mumkin bo'lgan vositalarini belgilash: vaziyatni, sharoitni to'g'irlash, bevosita yordam ko'rsatish, maslahatlar, psixoterapiya, korreksiya, shartnoma xizmatidan foydalanish va h.k.);
- dispetcherlik (psixolog, psixoterapevt, seksolog, iqtisodchi, huquqshunos va h.k., yoki hukumat organlarining ta'sir ko'rsatishida, ularning mijozning kelgusidagi taqdirida ishtirokini ta'minlash kabi boshqa mutaxassislarning aralashuvini talab qiluvchi holatlarda);
- informatsion (ijtimoiy "aralashuv"ning samaradorligini ta'minlash uchun mijoz, oila yoki guruhdagilar oilasi, muammolar va sotsium sharoiti to'g'risida ma'lumot to'plash va shu bilan birga mijozlarni aniq xizmat tomonidan yoki mazkur mintaqadagi muassasa tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumot bilan ta'minlash).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Rossiya Federatsiyasida har bir fuqaroning xoh u ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lsin, xoh iqtidorli yosh bo'lsin barchasining teng huquqli ta'lif olishlari, iqtidorini yuzaga chiqarishi uchun umumta'lim muassasasi, oliy ta'limda ham ijtimoiy ish amaliyoti a'lo darajada olib boriladi. Yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy ish xodimining vazifalari va majburiyatları har bir mutaxassisning odob-axloqida ko'rindi. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis ta'lif sohasidagi huquqi qonunga muvofiq qo'llanilmay, va bunda fuqarolarning qonuniy talablarini qondirish imkoniyatlari izlanilmay, ularning zarur manfaatlarni qo'lga kiritish layoqati nokonstruktiv va ijtimoiy kuchlarga erishish vositalari cheklab qo'yilgan alohida shaxsga emas, balki shaxslar guruhi yoki hatto butun bir jamoaga yordam ko'rsatishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev UJ.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutk / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. I.Nurmatova. Turli guruh va qatlamlari bilan ijtimoiy ish. Farg'ona 2021
3. Pavlenok P.D., Rudneva M.YA. Texnologii sotsialnoy raboty s razlichnymi gruppami naseleniya: Uchebnoe posobie / Pod red. Prof. P.D.Pavlenka. - M.: INFRA-M, 2009. - 272 s. - (Vlysshee obrazovanie).
4. Basov.N.F., i drugie. Sotsialnaya rabota s razlichnymi gruppami naseleniya: Uchebnoe posobie / Pod red. Prof. Basov.N.F. - M.: INFRA- M, 2011.-663 s.
5. SHneyderL.B. Deviantnoe povedenie detey i podrostkov. M.: Triksta, 2005. - 336
6. Skott Coltrane and Michcl Adams. Gender and Families. SECOND EDITION. USA. 2008 year.
7. Antonov A.I. Sotsiologiya semi. Uchebnik. M.: INFRA-M, 2012